

**GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBORIY MADANIYAT ZARURATI**

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi  
talabasi

**Rayimova Moxinabonu Rashidovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida axboriy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, internet va ommaviy axborot vositalari orqali axborot almashinuvi kengayib borayotgani natijasida insonlarda axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi yoritiladi. Shuningdek, yoshlar ongini turli axborot tahdidlari va zararli g'oyalardan himoya qilishda axboriy madaniyatni rivojlantirish muhim omil ekani ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda globallashuv sharoitida axboriy madaniyatni oshirishning asosiy yo'nalishlari va uning jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi roli haqida xulosalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar;** globallashuv, axboriy madaniyat, axborot texnologiyalari, internet, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, ma'naviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasi, axborot jamiyati.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of information culture in the life of society in the context of globalization processes. As a result of the rapid development of information technologies, the expansion of information exchange through the Internet and mass media, the need to form the skills of people to correctly perceive, analyze and rationally use information is highlighted. It is also shown that the development of information culture is an important factor in protecting the minds of young people from various information threats and harmful ideas. The study draws conclusions about the main directions of improving information culture in the context of globalization and its role in the spiritual development of society.

**Keywords;** globalization, information culture, information technologies, Internet, media literacy, information security, spiritual threats, youth education, information society.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida axborot texnologiyalari va internetning tez rivojlanishi natijasida axborot almashinuvi juda kengaydi. Bunday sharoitda axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ya'ni axboriy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



## Learning and Sustainable Innovation

Globalashuv jarayonida axborot oqimining ortishi bilan birga turli zararli g'oyalar va noto'g'ri ma'lumotlar ham tarqalishi mumkin. Shu sababli, ayniqsa yoshlar orasida axboriy madaniyatni shakllantirish va axborotdan ongli ravishda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi –globalashuv jarayonlari bilan tavsiflanadi. Globalashuv –bu dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va axboriy sohalarda o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirining kuchayish jarayonidir. Bu jarayon natijasida dunyo tobora kichrayib borayotgandek tuyuladi: axborot almashinuvi tezlashdi, transport vositalarining rivojlanishi masofalarni qisqartirdi, internetning ommalashuvi esa insonlar ongiga, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Globalashuv, bir tomondan, insoniyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Yangi texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va madaniy almashinuv jarayonlari jamiyat rivojiga kuchli turtki beradi. Xususan, davlatlar o'rtasida hamkorlik kuchayadi, jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari ortadi, yosh avlodning dunyoqarashi kengayadi. Ochiqlik siyosati va integratsiya jarayonlari ko'plab sohalarda modernizatsiyani jadallashtiradi. Biroq globalashuvning ta'siri faqat ijobiy yo'nalishda kechmaydi. Madaniy maydonda ommaviy madaniyatning keskin kirib kelishi milliy an'ana va qadriyatlarining yo'qolish xavfini yuzaga keltiradi. Axborot oqimlarining cheksizligi esa inson ongida ma'naviy bo'shliq, shaxsiy identitetning zaiflashuvi kabi jarayonlarni kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, globalashuv ijtimoiy tengsizlikni oshirishi, jamiyatda tabaqalanish jarayonini kuchaytirishi ham ehtimoldan holi emas. [4]

XX asr oxiri va asrimiz boshlarida internetga kiruvchilarning ko'p qismi, asosan, chatlardan foydalanib, keraksiz gap-so'zlar bilan internetda o'tirar edi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish 2007-yil oxiriga kelib, juda keng tarqala boshladi. Olamda yuz berayotgan xabarlarni katta tezlikda, suratlari bilan jonli tarzda tarqatish kabi xususiyatlari borligi sababli ijtimoiy tarmoqlar tez ommalashib ketdi. Ijtimoiy tarmoqlar oldingi a'naviy ommaviy axborot vositalari o'rnini egallab, internet orqali ma'lumotlar, suratlari va videolarni jo'natish, almashish oddiy holga aylandi. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar kishilar orasida tez ommalashib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning ko'pi "Odnoklassniki", "Facebook", "Twitter" kabilardan foydalanishadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar internetga kiruvchilarning o'zaro muloqat qilish va ma'lumot almashishlari uchun juda qulay vositadir. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari virtual suhbatdoshlar bilan muloqat qilganda deyarli hamma narsa haqida ochiq-oydin gaplashadilar. Bu hol o'z navbatida o'zaro hurmat chegarasini buzib o'tadi, suhbatdoshlar o'rtasida salbiy



## Learning and Sustainable Innovation

muomila muhiti paydo bo'ladi .Ijtimoiy tarmoqqa o'rtnashib olib ,o'zlarining buzuq e'tiqodlari bilan yoshlarni yo'ldan adashtirayotgan kimsalar kirdikorlari ,ayrimlarning bu ishlarga loqaydlik bilan qarayotganliklari, oqibatda ko'plab insonlar buzg'unchilar shuningdek ,ijtimoiy tarmoqdan nobakor kimsalar mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni izdan chiqarayotgani aniq misollar bilan oshkor qilingan. Haqiqatdan ham ijtimoiy tarmqolarda shiddat bilan suhbatdosh izlashi zamonamiz avlodiga xos axmoqlikning belgisi sifatida qaraladi . Misol uchun hozirgi globallashuv zamonida ijtimoiy tarmoqlar ko'p taraflama ziyon keltirmoda , bu yoshlarning ongi ,dunyoqarashlarida , tarbiyasida va oilalar qanchadan qanchasi buzilib ketishiga sabab bo'lmoqda . Internet jamoatchilik fikrini egallashga qaratilgan kurashlarni o'zgartirib yubordi .Endilikda hech qanday kuch sarflamasdan ,qarshilik va cheklovlarga duch kelmay , omma ongiga osongina ta'sir ko'rsatish ,boshqalarning qarashlarini o'z manfaatlari sari yo'naltirish mumkin . Globallashuv zamonida ijtimoiit tarmoqlar har tomonlama ham ijobiy ham salbiy ta'sirlarini ko'rsatib bormoqda .[3/37]

Dunyo rivojlanib borgani sari uning biz payqamay qolgan, ammo o'ta dolzarb bo'lgan qirralari chiqib bormoqda. Virtuallik orqali ommaviy madaniyat globallashib bormoqda. Albatta, bu juda yaxshi. Chunki jahonda bo'layotgan voqyea hodisalar va yangiliklardan tez fursatlardan habardor bo'lish zamon talabidir. Respublikamizda olib borilayotgan tub iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar negizida ham aynan mana shunday omillar turibdi desam mubolag'a bo'lmaydi. Proffessor Sh.S.Kushakov fikricha, kompyuter asri yangi dezinformasiyani vujudga keltirdi, ya'ni feykli dezinformasiya. Demak virtual olamda ko'proq yolg'on ma'ulomotlar tarqatish, kishilarni aldash, chalg'itish oson kechmoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga quyilgan me'yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir. [2/175]

Shu munosabat bilan, bugungi globallashuv sharoitida milliy axborot makonimiz daxlsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, 2022-yil 15-aprelda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bu boradagi huquqiy asoslarni yanada mustahkamladi. Mazkur qonun nafaqat texnik himoyani, balki axborot maydonidagi kiberjinoyatchilik va yot g'oyalarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini ham belgilab beradi.[5]



Hozirgi transformatsiya jarayonlari xalqaro globallashuvning o'ta murakkab va ziddiyatli tus olishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu holat nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki jamiyatning ma'naviy-ruhiy qatlamlarida ham o'z in'ikosini topmoqda. Ayniqsa, global axborot makonining cheksiz kengayishi natijasida "mafkuraviy tahdid" tushunchasi milliy xavfsizlikka nisbatan eng asosiy xavflardan biri sifatida namoyon bo'lishni boshladi. Professor Q. Nazarov tahriri ostidagi ilmiy tadqiqotlarda ushbu tushunchaga juda aniq ta'rif berib o'tilgan. Unga ko'ra, mafkuraviy tahdid — muayyan millat va davlatning barqarorligiga, uning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan, shaxsning ma'naviy olamini izdan chiqarishni ko'zlagan g'oyaviy-nazariy tajovuzlar majmuidir. E'tiborli jihati shundaki, zamonaviy globallashuv davrida bunday tahdidlar ochiq harbiy harakatlar ko'rinishida emas, balki telekommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy media va turli internet platformalari orqali "yumshoq kuch" (soft power) tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Buzg'unchi kuchlar aholining, xususan, yoshlarning hissiyotlari va axborotga bo'lgan ehtiyojidan foydalanib, ularning ongi va kalbiga yot g'oyalarni singdirishga urinmoqdalar. Axborotdan noxolis foydalanish orqali jamiyatda axloqsizlik va ekstremizm g'oyalarni yoyishga urinishlar hozirgi "axborot xurujlari"ning bosh strategiyasiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, bunday tajovuzlarga samarali javob qaytarishning yagona yo'li — aholida, ayniqsa yosh avlodda yuqori darajadagi axboriy madaniyatni shakllantirishdir. Bu esa har bir fuqarodan internetdan kelayotgan ma'lumotlarni saralash, ularni tanqidiy tahlil qilish va "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida mustahkam g'oyaviy immunitetga ega bo'lishni talab etadi. [6/184-185]

Globalashuv sharoitida axborot madaniyatini shakllantirish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki milliy xavfsizlikning tarkibiy qismidir. Tadqiqotchi G. Alimovning fikricha, bugungi kunda axborot bilan ishlashda inson ongi maxsus "filtr" vazifasini o'tovchi uch bosqichli himoya tizimiga ega bo'lishi shart. Birinchidan, axborotni saralash ko'nikmasi — bu har kuni qabul qilinadigan cheksiz xabarlar oqimidan eng ishonchli va rasmiy manbalarni ajratib olish qobiliyatidir. Ikkinchidan, tanqidiy tahlil bosqichi bo'lib, bunda har bir xabarning ortida qanday maqsad turgani va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi savol ostiga olinishi lozim. Uchinchidan esa, media-gigiyena qoidalari — bu shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatishning etik normalariga qat'iy rioya qilishdir. Alohida qayd etilganidek, axborot madaniyati rivojlangan jamiyatda har qanday g'oyaviy xuruj yoki feyk xabarlar o'z ta'sir kuchini yo'qotadi. Chunki bunday muhitda auditoriya axborotni



shunchaki iste'mol qilmaydi, balki uni tahlil qilish, mantiqiy süzish va rad etish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa globallashuv davrida jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ma'naviy qalqon bo'lib xizmat qiladi." [1/112-125]

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga nafaqat texnik imkoniyatlar, balki jiddiy ma'naviy-axloqiy mas'uliyatni ham ko'ndalang qo'ymoqda. Axborot makonining chegarasizligi sharoitida shaxsning axborot madaniyati darajasi uning mustaqil fikrga ega bo'lishi va tashqi mafkuraviy tazyiqlardan himoyalashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy "axborot xurujlari" va feyk xabarlariga qarshi kurashishda faqatgina texnik himoya vositalari bilan cheklanib bo'lmaydi. Inson ongi va qalbini bunday tajovuzlardan asrashning eng samarali yo'li — bu shaxsdagi tanqidiy tafakkur va mustahkam g'oyaviy immunitetdir. Bu jarayonda har bir ma'lumotni mantiqiy tahlil qilish va uning asl maqsadini anglash media-savodxonlikning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, globallashuv davrida axborot madaniyati shunchaki bilim emas, balki shaxsning axborot ummonida o'zligini asrab qolishining yagona kafolatidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alimova .G.Axborot xizmatlari va mediasavodxonlik T.: "Zamin nashr"2021.
2. .B.S.Abdullayeva, Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismoilova Mediasavodxonlik va axborot madaniyat o'zbekistin respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi .T. 2024
3. Glaballashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy –axloqiy madaniyatiga ta'siri . Bozarboyeva Moxinur Shokir qizi Jizzax Davlat Pedagogika universiteti
- 4 .Glaballashuvda ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo;lish shakillari . Mansurov Abdulla Sayfullayevich Namangan davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasida kata o'qituvchi
- 5 .O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida
6. Qiyomiddin Nazarov G'oyalar falsafasi Ozb Res prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilish akademiyasi 2011-y